

BUXORO AMIRLIGINING TASHKIL TOPISHI: TARIXIY MANZARA VA SIYOSIY OMILLAR

Shukurov R.J

PhD

XVIII asrning ikkinchi yarmi Movarounnahr tarixida keskin siyosiy beqarorlik, hokimiyat uchun doimiy kurashlar, markazlashgan boshqaruvning izdan chiqishi bilan xarakterlanadi⁴. Bu davrda Ashtarxoniyalar sulolasi o'zining siyosiy salohiyati va boshqaruv quvvatini asta-sekin boy bera bordi. Sulola vakillari o'rtasidagi nizolar va markaziy hokimiyat uchun bo'lgan ichki kurashlar oqibatida davlat boshqaruv falaj bo'lib qoldi. Ayniqsa, 1740-yillardan keyingi davrda markaziy hukumat amalda o'z ta'sirini yo'qotgan edi. Bu tanazzul butun Movarounnahrda, ayniqsa siyosiy va iqtisodiy markazlar – Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi shaharlarda chuqur sezildi⁵.

Markaziy hokimiyat zaiflashgani sari yirik feodallar va harbiy lashkarboshlari mustaqil harakat qilishga, o'z hududlarida deyarli to'liq hukmronlik o'rnatishga harakat qila boshladilar. Ko'plab viloyat amaldorlari – beklar, qo'shbegilar, sardorlar markaziy hukumatga itoat qilish o'rniga o'z manfaati yo'lida harakat qila boshladi. Ular o'z harbiy kuchlarini mustahkamlab, ayrim hollarda hatto mustaqil soliq siyosatini yuritdilar. Bu holat mamlakatda feodal tarqoqlikni keskin kuchaytirdi va Movarounnahr yirik-yirik yarim mustaqil mulklarga parchalandi⁶.

1747 yilda Eron shohi Nodirshohning o'ldirilishi bilan Eron tomonidan bo'lgan bosim pasaydi, biroq bu Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni tiklamadi. Aksincha, tashqi tahdid kamayishi ichki kuchlar o'rtasidagi kurashlarni avj oldirdi. Samarqand, Qarshi, Nurota, Kattaqo'rg'on, Hisor kabi hududlar o'rtasida doimiy ziddiyatlar, harbiy yurishlar bo'lib turdi. Bu ziddiyatlar ko'p hollarda oddiy xalq hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi: savdo-sotiq izdan chiqdi, dehqonchilik yomonlashdi, karvon yo'llari xavfsiz bo'lmay qoldi. Aholi noroziligi kuchayib, turli ijtimoiy norozilik harakatlari yuzaga chiqdi.

Mang'itlar orasidan eng faol va yetakchi shaxs sifatida Muhammad Rahimbiy alohida ajralib turardi. U o'z davrining zukko harbiy sarkardasi, ayni paytda mohir siyosatchi sifatida tarixda o'z izini qoldirdi. 1740-yillarning oxirlarida u siyosiy maydonga faol kirib keldi. U dastlab o'z harakatlarini Ashtarxoniyalar sulolasi vakili Abulfayzxon nomidan olib borgan. Bu siyosiy yuritma bilan u hokimiyatni bevosita egallamay, mavjud sulola nomidan yuritilgan harakat orqali o'z kuchini muqaddaslashtirishga va e'tirof ettirishga erishdi. Muhammad Rahimbiy rasmiy hokim bo'lmasdan turib, mamlakatdagi muhim siyosiy va harbiy qarorlarni o'zi

⁴ Karimov U. Buxoro amirligi davlatchilik tizimi tarixi. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 18–20.

⁵ Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 75.

⁶ Holboev S. Buxoro amirligining oltin xazinasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 114.

qabul qilgan, soliqlar yig'imi, mansablar tayinoti va harbiy yurishlar to'g'risidagi farmonlar bevosita uning ishtirokida amalga oshirilgan⁷.

Muhammad Rahimbiy faoliyat yuritgan davrda Ashtarxoniylar sulolasining rasmiy vakili hali ham bor edi, ammo u faqat qog'ozdagi hukmdor bo'lib qolgan edi. Amalda esa barcha muhim ishlarda Muhammad Rahimbiy Mang'it urug'i vakillari bilan birgalikda siyosiy yetakchilikni o'z qo'liga oldi. Uning tashabbusi bilan Buxoro atrofidagi tartibsizliklarga barham berildi, karvon yo'llarining xavfsizligi tiklandi, yirik feodallar bilan murosalar qilindi. Bu esa uni nafaqat harbiy, balki siyosiy boshqaruvda ham mustahkam o'rin egallashiga xizmat qildi.

1756–1758-yillarda Muhammad Rahimbiy o'zini Buxoroning de-fakto hukmdori sifatida tutdi. Ashtarxoniylar sulolasiga nisbatan sadoqatni rasmiy tarzda bildirgan bo'lsa-da, amalda ular ustidan nazorat o'rnatdi. Shuningdek, u o'zining o'g'li Doniyolbiy va nabirasi Shohmurodbiylarni turli lavozimlarga tayinlab, kelajakda sulola asos solish yo'lida siyosiy zamin tayyorladi. Muhammad Rahimbiy o'z davrida Mang'itlar harakatini mustahkamlab, ularni faqat harbiy kuch emas, balki siyosiy kuch sifatida ham tanitishga erishdi.

Mang'itlar harakati aynan shu davrdan boshlab mustaqil sulolaviy hokimiyat sari qadam qo'ya boshladi. Muhammad Rahimbiy vafotidan so'ng, uning o'g'li Doniyolbiy (1758–1785) va nabirasi Shohmurodbiy (1785–1800) Buxoro amirligini rasmiylashtirdi. Bu esa tarixda Ashtarxoniylar sulolasi o'rniga Mang'itlar sulolasining siyosiy hukmronligi boshlanganini anglatardi. Shu tariqa Mang'itlar sulolasi Buxoro tarixida yangi davrni boshlab berdi — bu davr markazlashgan boshqaruvni tiklash, tartib-intizomni qaror toptirish, tashqi siyosatda faol bo'lish va ichki ijtimoiy-siyosiy islohotlar davri bo'ldi.⁸

Mang'itlar siyosiy maydonga chiqishi, ayniqsa Muhammad Rahimbiy davrida amalga oshirilgan siyosiy amaliyotlar, nafaqat Buxoro tarixida, balki butun Movarounnahrda tarixiy burilish yasagan muhim hodisa sifatida baholanishi lozim.

XVIII asr o'rtalarida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik, markazlashgan hokimiyatning zaiflashuvi, ichki ixtiloflar va sulolaviy inqiroz natijasida yangi siyosiy tuzilma – Buxoro amirligi shakllandi. 1756–1758-yillar orasida Muhammad Rahimxon o'zini “amīr ul-muslimīn”, ya'ni musulmonlarning amiri deb e'lon qilib, shu tariqa Buxoro amirligini rasmiy ravishda tashkil etdi. Bu harakat Ashtarxoniylar sulolasining de-fakto tugatilganini rasman mustahkamlab, yangi sulola – Mang'itlar hukmronligini siyosiy-huquqiy asosda qonuniylashtirdi⁹.

Muhammad Rahimxon dastlab Ashtarxoniylar nomidan harakat qilgan bo'lsa-da, ularning zaifligidan foydalangan holda hokimiyat iplarini asta-sekin o'z qo'liga oldi. Ashtarxoniy hukmdori Abulfayzxonning 1751-yilda qatl qilinishi Mang'itlar

⁷ Salimbek M. Tarixi Salimiy. – Buxoro: BuxDU, 2003. – B. 95.

⁸ Donish A. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent: Sharq, 1993. – B. 123.

⁹ Nuriddinov S. O'zbekiston davlatlilik tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 61.

sulolasiga yo'l ochdi. Ammo Muhammad Rahimxon bu o'tish jarayonini bosqichma-bosqich, ehtiyotkorlik bilan olib bordi. U o'z hokimiyatini faqat harbiy kuch bilan emas, balki siyosiy diplomatiya, diniy-legitim asoslar, urug'lararo murosalar va iqtisodiy islohotlar orqali mustahkamladi. Nihoyat, 1756–1758-yillar oralig'ida u o'zini Buxoro davlatining rasmiy hukmdori – amiri deb e'lon qildi.

Bu voqea Markaziy Osiyoda muhim siyosiy burilish yasadi. Endilikda “Buxoro amiri” unvoni hukmdorlikni anglatuvchi asosiy maqom sifatida e'tirof etildi. Bu unvon faqat siyosiy hokimiyat emas, balki diniy rahbarlik, tartib va adolat kafolatchisi sifatida ham tushunilar edi. Muhammad Rahimxonning o'zini amir deb e'lon qilishi, nafaqat ichki siyosiy kuchlar, balki tashqi davlatlar – xususan, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, hatto Eron va Rossiya bilan munosabatlarda ham Buxoroni mustaqil siyosiy kuch sifatida tanitdi.

Yangi tashkil topgan amirlik harbiy-iqtisodiy zaminlarga tayangan holda o'zining hududiy siyosatini olib bordi. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Nurota, Karmana va boshqa yirik shaharlar markaziy hokimiyatga bo'ysundirilgan bo'lsa, uzoqdagi viloyatlar va qishloqlar bilan soliq, harbiy xizmat va siyosiy sadoqat orqali aloqa o'rnatildi. Muhammad Rahimxon harbiy yurishlar bilan chegaralarni mustahkamladi, ichki feodal kuchlarni jilovladi va tartib-intizom o'rnatishga kirishdi.

Shu bilan birga, Buxoro amirligining tashkil topishi nafaqat siyosiy hokimiyat o'zgarishi, balki ma'muriy-boshqaruv tizimi, soliq siyosati, harbiy tuzilma va diniy institutlarning qayta shakllanishini ham anglatdi. Amirlikda ilk bor muntazam soliq tizimi joriy qilindi, qarorgohlar, saroylar va mudofaa inshootlari qayta tiklandi, davlat siyosatini yurituvchi idoralar barpo qilindi. Shuningdek, madrasa va masjidlar orqali diniy legitimlik mustahkamlandi.

Buxoro amirligining rasmiy tashkil topishi Muhammad Rahimxon shaxsiy iste'dodi va siyosiy vaziyatdan ustalik bilan foydalanishining natijasi bo'lib, bu hodisa butun Markaziy Osiyo tarixida yangi siyosiy bosqichni boshlab berdi. Keyinchalik uning vorislari - Daniyorbey va Shohmurodbeylar tomonidan bu asoslar yanada takomillashib, mustaqil amirlik sifatida Buxoro o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini shakllantira boshladi.

Muhammad Rahimxon va undan keyingi amirlar o'z hokimiyatini mustahkamlash yo'lida bir necha asosiy ijtimoiy qatlamlar bilan murosalar siyosatini yuritdilar. Ular, eng avvalo, mahalliy yirik yer egalari - dehqonlar va mulkdorlar sinfi bilan yaqin aloqalar o'rnatdilar. Bu qatlam amirlik iqtisodiyotining tayanchi hisoblangan bo'lib, ularga ma'lum imtiyozlar, yer egaligini tasdiqlovchi hujjatlar va soliq yengilliklari berildi. Dehqonlar o'z navbatida amirlikka soliqlar to'lab, unga iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab berdilar. Bunday murosalar natijasida mahalliy elita amir hokimiyatini tan oldi va uni qo'llab-quvvatlashga kirishdi¹⁰.

¹⁰ Saidjonov M. Buxoro amirligi arxivlari tarixi. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 65.

Ikkinchi muhim tayanch qatlam - bu diniy ulamolar edi. Amirlik tuzumi shakllanishida ulamolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish siyosiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ulamolar diniy hokimiyatni ifodalardi va ular xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Amirlar ulamolarga katta hurmat bilan munosabatda bo'lgan, ularning fatvolariga amal qilgan va ko'plab madrasa, masjidlar qurdirib, diniy sohani qo'llab-quvvatlagan. Natijada, ulamolar ham amirlik siyosatini "shariat asosida" deb targ'ib qildilar va aholining yangi tuzumga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim vositachi bo'lib xizmat qildilar.

Amirlik boshqaruvida teokratik unsurlar muhim o'rin tutdi. Ya'ni, davlat boshlig'i - amir nafaqat siyosiy hokim, balki diniy rahbar sifatida ham qaralardi. Bu amalda davlat boshqaruvida dunyoviy va diniy hokimiyatning uyg'unlashuviga olib keldi. Amirlarning ko'pchiligi o'z hukmronligini Alloh irodasi bilan asoslagan va bu asosda siyosiy qarorlarni shariat bilan muvofiqlashtirib olib borgan. Bunday yondashuv xalq orasida siyosiy qarorlarning diniy asosga ega ekanligi haqidagi tasavvurni kuchaytirgan.

Buxoro amirligida teokratik siyosatning kuchayishi, ayniqsa, Muhammad Rahimxonning vorislari - Shohmurod (1785–1800) va Amir Haydar (1800-1826) hukmronliklari davrida yanada ravshan ko'zga tashlandi. Shohmurod o'zini nafaqat amir, balki islom dini himoyachisi sifatida taqdim etdi. U davlat ishlarini yuritishda muftiylar, qozilar va mashhur ulamolar bilan maslahatlashib ish tutgan. Bu siyosat ijtimoiy-siyosiy muammolarni diniy asosda hal qilishga yordam berdi. Xususan, shariat qonunlariga asoslangan sudlar joriy etildi, aholi o'rtasidagi nizolar madrasa va masjidlarda hal qilinadigan bo'ldi. Bu tizim aholiga yaqin bo'lganligi sababli xalqning hokimiyatga nisbatan ishonchini oshirdi.

Amirlikda siyosiy tuzumni mustahkamlashda tribalizm (urug'-qabila) siyosatining ham o'ziga xos o'rni bo'ldi. Mang'itlar avvalo o'z urug'doshlariga yuqori lavozimlar berib, hokimiyatni ichki xavflardan himoya qilgan bo'lsalar, boshqa yirik urug'lar vakillari bilan o'zaro siyosiy nikohlar, ittifoqlar va hokimiyatni bo'lishish orqali sulhli munosabatlar o'rnatdilar. Bu yondashuv ham amirlik tuzumining mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga moslashishini va barqarorlikni ta'minladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida Buxoro amirligi tashqi siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab bir muhitda shakllandi va rivojlandi. Amirlik Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgani bois, u bir vaqtning o'zida bir necha yirik davlatlar - Eron (Qojarlar sulolasi), Afg'oniston (Durroniylar sulolasi), Xitoy imperiyasi (Sharqiy Turkiston orqali), hamda eng avvalo shimoldan tobora janubga siljib kelayotgan Rossiya imperiyasi bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo'ldi. Har bir bu kuch o'z hududiy va siyosiy manfaatlarini ko'zlab, Buxoro amirligi ustidan ta'sir o'rnatishga intilar edi. Shunday geosiyosiy vaziyatda Amirlik tashqi siyosatini har doim ehtiyotkorlik, muvozanat va ko'p tomonlama diplomatiyaga asoslashga majbur bo'ldi.

Amirlik tashkil topgan dastlabki yillarda, ya'ni Muhammad Rahimxon (1747-1758) davrida tashqi siyosat asosan mudofaa xarakterida bo'lib, ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Bu davrda Eron Qojarlari va Afg'oniston Durroniylari tomonidan Movarounnahr hududlariga qilinishi mumkin bo'lgan har qanday harbiy harakatlarga qarshi ehtiyot choralari ko'rildi. Ayniqsa, Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida kuchaygan beqarorlik Buxoroning janubiy chegaralarida xavfsizlikni ta'minlash masalasini dolzarb qilgan edi. Shuningdek, Eron bilan munosabatlar ham har doim ehtiyotkorlik va uzoqni ko'zlagan siyosat orqali olib borildi. Qojar sulolasining Eron hududida o'z hokimiyatini mustahkamlashi natijasida ular ham Markaziy Osiyo siyosatiga aralashishga urinib ko'rdilar. Buxoro amirlari bu harakatlarga qarshi diplomatik murosalar yo'li bilan javob berdilar.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buxoro amirligi tashqi siyosatida eng muhim o'rin tutgan davlat - Rossiya imperiyasi bo'ldi. Rossiyaning Sibir orqali O'rta Osiyoga yaqinlashuvi, keyinchalik Orenburg va Yettisuv yo'nalishlari orqali savdo yo'llarini kengaytirishga bo'lgan intilishi, Buxoro uchun strategik xavf bilan bir qatorda iqtisodiy imkoniyatlar ham yaratdi. Muhammad Rahimxonning vorislari - Shohmurod va Amir Haydar davrida Rossiya bilan faol diplomatik aloqalar o'rnatildi. Ayniqsa, savdo aloqalari kengaydi, rus savdogarlari Buxoroga, buxorolik savdogarlar esa Orenburg va boshqa rus shaharlariga borib-kelishdi. Savdo karvonlari uchun maxsus imtiyozlar, bojxona yengilliklari taqdim etildi. Buxoro amirligi tomonidan Rossiyaga rasmiy elchilar yuborilishi, rus konsullarining esa Buxoroda faoliyat yuritishi tashqi siyosatda muhim diplomatik muvaffaqiyat sifatida baholandi¹¹.

Rossiya bilan bo'lgan munosabatlar faqat savdo yoki elchilik bilan cheklanib qolmadi. Bu aloqa orqali Buxoro amirligi o'zining harbiy va texnik imkoniyatlarini ham yangilashga harakat qildi. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, XIX asr boshlarida rusalardan qurol-aslaha, artilleriya va harbiy maslahatchilar olishga intilishlar bo'lgan. Bu amirlikning ichki barqarorligini saqlash va boshqa tashqi kuchlar, ayniqsa Afg'oniston va Eron bilan bo'ladigan ziddiyatlarda Rossiyaning betarafligini ta'minlashga qaratilgan edi.

Buxoro amirligi tashqi siyosatda doimo o'zining mustaqilligini saqlab qolishga intilgan. Bu maqsadda u turli davlatlar bilan aloqalarni muvozanatda ushlab turdi, ya'ni bir davlat bilan yaqinlashganida, boshqasiga ham e'tibor qaratib, har qanday bir tomonlama qaramlikdan qochishga harakat qildi. Masalan, Rossiyaga yaqinlashgan davrlarda, Afg'oniston yoki Eron bilan ham elchilik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bu esa Buxoroning tashqi siyosatini o'ziga xos "muvozanat diplomatiyasi" shaklida olib borilganligini ko'rsatadi.

Buxoro amirligining siyosiy shakllanishi nafaqat harbiy va diplomatik omillar, balki chuqur ijtimoiy-iqtisodiy zaminlarga ham tayangan edi. Amirlik tashkil topgan

¹¹ Qurbonov M. Mirzo Salimbek va Buxoro amirligi ilmiy-adabiy muhiti. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 98.

davrda Movarounnahr hududi, xususan Buxoro vohasi, iqtisodiy jihatdan nisbatan barqaror bo'lgan. Bu barqarorlik mamlakatdagi aholining asosiy hayot tarzini belgilab bergan va markazlashgan davlat boshqaruvining shakllanishida muhim omil sifatida xizmat qilgan.

Eng avvalo, Buxoro vohasining tabiiy-geografik sharoitlari qishloq xo'jaligi uchun juda qulay edi. Zarafshon daryosining quyi oqimidagi sug'oriladigan yerlar asrlar davomida dehqonchilik faoliyatining markaziga aylangan. Paxta, bug'doy, arpa, suli, guruch kabi ekinlar yetishtirish aholining asosiy bandligi bo'lib, bu soha amirlik iqtisodiyotining tayanch tarmog'i edi. Sug'orish inshootlari – ariqlar, karyzlar, to'g'onlar va hovuzlar - asosan mahalliy aholi tomonidan jamoaviy mehnat orqali barpo etilgan va bu hol ijtimoiy birlashmalarning vujudga kelishiga, ularning amirlik siyosatida ham faol rol o'ynashiga olib kelgan.

Buxoro amirligi tarkibida joylashgan yirik shaharlar - Buxoro, Samarqand, Karmana, Qarshi va boshqa markazlar esa hunarmandchilik va savdoning rivojlanganligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa, Buxoro shahri o'zining zargarlik, gilamdo'zlik, misgarlik, temirchilik, to'quvchilik, charmdan buyumlar tayyorlash kabi sanoat tarmoqlari bilan mashhur edi. Bu tarmoqlarda faoliyat yuritgan hunarmandlar mahalliy bozorlar va xalqaro karvon yo'llari orqali o'z mahsulotlarini savdoga chiqarishgan. Shu tariqa, ichki ishlab chiqarishning tiklanishi va savdoning jonlanishi Buxoro amirligining iqtisodiy mustahkamligini ta'minlab, davlat hokimiyatining moliyaviy poydevorini yaratdi.

Amirlikdagi iqtisodiy hayot faqat ichki ishlab chiqarish bilan cheklanmasdan, tashqi savdo orqali ham boyitilgan. Ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Erondan kelgan savdogarlar bilan doimiy aloqalar mavjud bo'lgan.

Buxoro bu davrda nafaqat savdo markazi, balki tranzit hudud sifatida ham ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, rus savdogarlari bilan olib borilgan iqtisodiy hamkorlik natijasida amirlik kassasiga muhim daromadlar tushgan.

Bular soliqlar, bojlar va savdo imtiyozlari shaklida bo'lgan bo'lsa, bu daromadlar esa markazlashgan harbiy va byurokratik tizimni moliyalashtirishga xizmat qilgan.

Ijtimoiy jihatdan esa, aholining qatlamlanishi Buxoro amirligida hokimiyat tuzilmasini belgilab beruvchi omillardan biri bo'ldi. Yuqori tabaqa - ya'ni amir oilasi, beklar, sarkardalar va yirik yer egalari - amirlik siyosatini belgilovchi kuch sifatida shakllandi. Ulamolar esa teokratik tuzum doirasida nafaqat diniy, balki ijtimoiy-huquqiy muhitda ham muhim rol o'ynadi.

O'rta qatlamda hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, pastki qatlamda esa kambag'allar, qullar va xizmatkorlar mavjud bo'lgan. Aholining bu tarzda ijtimoiy tabaqalarga ajralishi amirlik boshqaruvi uchun kerakli ijtimoiy tayanchni ta'minlab bergan.

Amirlik davlatchiligining shakllanishida iqtisodiy asoslarning mustahkamligi natijasida, markazlashgan boshqaruv tizimi barpo etildi.

Moliya, yer solig'i, bojxona va boshqa byudjet tushumlari asosida Amirlik o'z armiyasini ta'minladi, davlat xizmatlarini yuritdi hamda ichki tartib-intizomni saqlashga muvaffaq bo'ldi.